



ISSN 2010-4246

ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

**YANGI YILINGIZ QUTLUG'
BO'LSIN, AZIZLAR!**

2025.12/2

www.ilm.sarchashmalar.uz



Madraximova Gulnozaxon Adxamovna	Call-markaz operatorlar nutq tahlilida psixolingvistikaning o'rnini	91
Koziyeva Iqbol Komiljonovna	Antroponimlarning toifalari	94
O'rinova Shoxsanamxon Nosirjon qizi	Menasiv nutqiy aktlarning tasnif va tavsif masalalari: asos va tamoyillar	97
Kalandarov Aybek Ruzimbayevich, Maxmudova Quvonchoy Quzibaevna	Ingliz va o'zbek tillarida inson ruhiy holatini ifoda etuvchi leksik birliklarga psixolingvistik yondashuv	101
Sharipova Sijoat Axmedovna	Navoiy asarlarida murtajal va murakkab atoqli otlarning arab onomastikasi bilan uyg'unligi: struktur va semantik tahlil	104
ADABIYOTSHUNOSLIK		
Fuzaylova Nargiza Abdusamatovna	O'zbek romanchiligida inson taqdiri va qadr-qimmatini masalasi	107
Jumaniyazova Ro'zagul Saparbayevna	Qo'zi Davlatning "Tungi yog'du" romanidagi Feruz obrazining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	110
Mirsharipova Barno Abdusattarovna	Pak Vanso ijodining o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi masalalari	114
Yo'fchiyev Qahhorjon Vahobovich	Sog'inchning badiiy ifodasi	117
Pirmatova Xulkar Djaxangirovna	Gender identifikatsiyasi tushunchasi va uning adabiyotshunoslikdagi taqini	122
Ikramova Maftuna Xamidjon qizi	"Drums Under the Window" va "I Knock at the Door" asarlarida hikoya qilish uslubi	124
JURNALISTIKA		
Genjemuratov Yaqipbek	Yoshlar matbuotining o'ziga xos xususiyatlari	127
PEDAGOGIKA		
Choriyev Jo'raqul G'afforovich	Talabalarining adaptiv muloqot ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish yo'llari	130
Sadikov Erkin Tursunovich	Iltilos nutq aktini produktiv ko'nikmalar asosida o'qitishning lingvopragmatik asoslari	133
Abdunabiyev Sunnat Ne'mat o'g'li	Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning "Maorif" asarida axloqiy tarbiya tamoyillari	135
Tillayev Azamat Ibragimovich	Oliy ta'limda videoma'ruzalar tayyorlashning umumiy qoidalari	138
Muhamadiyeva Nargiza Qudratovna	Texnik tizim xatoliklariga yo'l qo'yish sabablarini qisqartirishning imkoniyatlari	141
Matchanova Nazokat Qudrat qizi	Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt sharoitida talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasi	144
Maxmarizayev Xurshid Otaqulovich	Kognitiv moslashuvchanlik va metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlari	148
Murodov Nodirbek Oybek o'g'li	Milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirishga doir didaktik yondashuvlar	150
Alimov Zokir Chori o'g'li	Mediakompetentlikni rivojlantirishning oliy ta'limdagi o'rnini va ahamiyati	154
Davlatova Sayyora Toshpo'latovna	Talaba yoshlar orasida ekologik xavfsizlik madaniyatini yuksaltirishning innovatsion yondashuvlari	156
Abdullayeva O'g'lioy Abdirahman qizi	Raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy ta'lim jarayonini takomillashtirish	159
Irgasheva Shoxida Sadriddinovna	Gamifikatsiya ta'sirida elektron ta'lim platformalarida talabalarining faollik dinamikasi	162
Hotamova Iroda Ibrohimovna	Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish	165
Xakimova Laziza Yusupovna	Loyihaga asoslangan o'qitish	167
Xidoyatova Shaxlo Maripjonovna	Ko'zi o'jiz va eshitish qobiliyati yo'q talabalarga ingliz tilini o'qitishning ESP asosidagi metodikasi	170

Fuzaylova Nargiza Abdusamatovna (TDSHU o'qituvchisi, Namangan davlat Texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi; nargizafuzaylova89@gmail.com)

O'ZBEK ROMANCHILIGIDA INSON TAQDIRI VA QADR-QIMMATI MASALASI

Annotation. Ushbu abstrakt o'zbek romanchiligida inson taqdiri va qadr-qimmatini masalasining badiiy ifodalanishini tahlil qiladi. O'zbek adabiyoti, ayniqsa, XX asrdagi romanlarda, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar fonida shaxsning ichki dunyosi, uning hayotiy tanlovlari va jamiyatdagi o'zini chuqur tadqiq etilgan. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridan tortib, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Said Ahmad kabi yozuvchilar ijodida qahramonlarning shaxsiy kechinmalari, ularning erkinlik va adolat yo'lidagi kurashlari, insoniy qadr-qimmatni saqlashga intilishlari yetakchi motivlardan biridir. Romannavislarning mahorati orqali milliy mentalitet, tarixiy sharoitlar va shaxsiy ziddiyatlar sintezi, inson ruhining murakkab qirralari ochib berilgan. Asarlarda taqdirning ziddiyatli burilishlari va qahramonlarning ularga munosabati orqali insonning ichki kuchi, uning irodasi va yashashga bo'lgan ishtiyoqi ulug'lanadi.

Kalit so'zlar: o'zbek romanchiligi, inson taqdiri, qadr-qimmatini, shaxs, kurash, milliy adabiyot, tarix, adabiyotshunoslik.

Фузайлова Наргиза Абдусаматовна (соискатель, Наманганский государственный технический университет; преподаватель ТГУВ)

ВОПРОС О ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ СУДЬБЕ И ДОСТОИНСТВЕ В УЗБЕКСКОМ РОМАНЕ

Аннотация. Эта статья анализирует художественное выражение проблемы человеческой судьбы и достоинства в этом абстрактном узбекском романе. В узбекской литературе, особенно в романах XX века, на фоне социально-политических изменений глубоко исследован внутренний мир личности, ее жизненный выбор и место в обществе. От произведения Абдуллы Кадыри "Минувшие дни" до творчества таких писателей, как Чулпан, Гафур Гулям, Абдулла Каххар, Айбек, Саид Ахмад, личные переживания героев, их борьба за свободу и справедливость, стремление сохранить человеческое достоинство являются одними из ведущих мотивов. Через мастерство романистов раскрывается национальный менталитет, синтез исторических условий и личностных противоречий, сложные грани человеческой души. В произведениях через противоречивые повороты судьбы и отношение героев к ним прославляется внутренняя сила человека, его воля и стремление к жизни.

Ключевые слова: узбекский роман, реальные события, история, общество, человек, реализм, национальная идентичность, культура, литература.

Fuzaylova Nargiza Abdusamatovna (Researcher, Namangan State technical university; teacher, TSUOS)

THE ISSUE OF HUMAN DESTINY AND DIGNITY IN UZBEK NOVEL WRITING

Annotation. This article analyzes the artistic expression of the issue of human destiny and dignity in this abstract Uzbek novel. In Uzbek literature, especially in novels of the 20th century, against the backdrop of socio-political changes, the inner world of the individual, his life choices, and his place in society are deeply studied. From Abdulla Qodiriy's "Days Gone By" to the works of Cholpon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, and Said Ahmad, the personal experiences of the characters, their struggles for freedom and justice, and their aspirations to preserve human dignity are among the leading motifs. Through the skill of novelists, the national mentality, the synthesis of historical conditions and personal contradictions, and the complex facets of the human soul are revealed. In the works, through the contradictory turns of fate and the characters' attitude towards them, a person's inner strength, will, and desire to live are glorified.

Keywords: Uzbek novels, human destiny, dignity, personality, struggle, national literature.

Kirish (Introduction). XX asr o'zbek adabiyoti ko'p asrlilik milliy adabiyotimiz tarixida muhim rol o'ynaydi. Bu davr adabiyoti xalq va mamlakatning adabiy va ijtimoiy hayot tarzini aks ettiradi. Yana ushbu davr adabiyoti feodal tuzum va mustamlakachilik davrida har tomonlama ezilgan, o'z Vatanida o'zini topa olmagan xalqni uyg'otishga, uning ongiga Vatan, Hurriyat, ma'rifat kabi tuyg'ularni singdirishga kirishdi. Adabiyotshunos olim Quronov D. quyidagicha ta'kidlaydi: "Badiiy adabiyot borliqini obrazlar, vositasida badiiy idrok qilish orqali bizning olam, odam, jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitadi".¹

¹ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, "Akademnashr", 2018, 97-bet.

Ma'rifatchilik davri va jadid adabiyoti namoyandalari ushbu vazifani ado etish uchun ta'lim tizimini isloh qilish, adabiy tilni sayqallash va adabiyotni oddiy xalq ongiga va qalbiga yo'ltopa oladigan usullarini yaratish, yangi adabiy janrlar va shakllar bilan boyitish yo'lida samarali ishlar olib bordilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'zbek romanchiligida inson taqdiri va uning qadr-qimmatini masalasi XX asr boshlaridan boshlab asosiy badiiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu jarayon jamiyatda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ma'rifatchilik g'oyalari va jadidchilik harakati-ning kuchayishi bilan chambarchas bog'liqdir. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Pirimqul Qodirov, O'tkir Hoshimov kabi ijodkorlarning asarlarida insonning jamiyatdagi o'rnini, shaxsiy erkinligi, irodasi, ma'naviy izlanishlari doimo markaziy mavzu bo'lib keldi.

Adabiyotshunos olimlar – D.Quronov, L.Kolobayeva, A.Sa'diy, Z.Bazarov, Sh.Mamayusupova kabi tadqiqotchilar izlanishlarida ham shaxs konsepsiyasi adabiyot taraqqiyotining poydevor omillaridan biri sifatida talqin etiladi. Ma'rifatchilik va jadid adabiyoti insonni jamiyatdagi faol o'rniga qaytarishga, uning haq-huquqlarini anglashiga, ma'rifatli bo'lishiga undaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqotda tarixiy-adabiy tahlil, qiyo-siy tahlil, badiiy tahlil va kontent tahlili metodlari qo'llanildi. Adabiy manbalar, romanlar matnlari, adabi-yotshunoslar fikrlari hamda davr ruhiyatini aks ettiruvchi tarixiy omillar umumiy o'rganildi. Metodlarning uyg'unlashuvi mavzuning mohiyatini yanada chuqur ochish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbek romanchiligida insonlar taqdiri, qadr-qimmatini, ularning o'y kechinmalari, orzu-umidlari yetakchi masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, biz bu masala-larni XX asr romanchiligida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

"Insonning badiiy konsepsiyasi, yozadi yana bir rus adabiyotshunosi L.Kolobayeva, ma'lum bir ada-biy kontekstda odamni shaxs sifatida tushunish va tasvirlash yo'lidagi turli tamoyillar, g'oyalar, qarashlar majmuini anglatuvchi tushunchadir. Inson konsepsiyasi yozuvchi ijodiy olamining mazmuni sifatida faqat bitta asarning emas, balki butun ijodiy yo'lni va uning turli bosqichlarini xarakterlovchi, estetik qonuniyat-larini belgilovchi asosdir".¹

Tahlillarga ko'ra XX asr boshlarida Turkiston Chor Rossiyasi tarkibida bo'lishi adabiyotimizga o'zi-ning katta ta'sirini ko'rsatdi. Ushbu davrda yaratilgan asarlarning bosh g'oyasi, asosan, milliy ozodlik g'o-yalari, xalqimizning milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini saqlab qolishiga qaratilgan harakatlar, o'z navbatida, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar hisoblanadi. Chunki "har bir davr adabiyotining rivojlanish darajasi, undagi turfa adabiy hodisalar ko'p jihatdan ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy-tarixiy sharoit deganda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy holati tushuniladiki, bular bari badiiy adabiyot taraqqiyotining tashqi omili sanaladi".² Bir tomondan, chor Rossiyasi bosqinchilari zulmi, ikkin-chi tomondan, laganbardor mahalliy amaldorlarning jabr va zulmlari xalqni holdan to'yirdi va ushbu og'ir davrlarda adabiyot va san'at sodda xalq ommasiga ma'naviy ozuqa berish, ularni yorug' kunlarga ruhlan-tirish vazifasini ado etdi. Turli xil janrlarning mazmunan yangilanishi, badiiy adabiyotning oddiy xalq ha-yotiga va madaniyatiga yaqinlashuvi bularga yorqin misol bo'la oladi.

Ma'rifatchilik davri adabiyotining yorqin namoyandalari hisoblangan Muqimiy, Zavqiy, Avaz O'tar, Furqat, Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi adiblar o'z asarlarida xalqning, ya'ni insonlar taqdirini asosiy g'oya sifatida tanlaydilar. Zahmatkash xalq dardini bayon etadilar va zulmkor amaldorlarni satira ostiga oladilar. Bu adiblarning asarlarini tub mohiyatini inson kechinmalari, quvonch va qayg'ulari, istak va armonlari, haqiqat uchun kurashlari tashkil etgan. Ularda do'stlik, sadoqat, vafodorlik va matonat tuyg'ulari ulug'langan va bular orqali adiblar insonlarning yaxshi xususiyatlarini namoyon qilgan. D.Quronov bu ha-qida. "Hamma gap XX asr boshlari Turkiston jamiyatida shaxs maqomining o'zgargani, insonning ijtimoiy-lashganida. Sodda qilib aytsak, Turkiston kishisi jamiyatning ahvoli, buguni va ertasi, mavjud holning sa-babi, xullas, siyosat haqida bosh qotiradigan bo'ldi",³ deya ta'kidlaydi.

Ular adolatli va baxtli zamonlar kelishini orzu qilgan va ishonishgan. Buni shoir Muqimiyning "Kelur oxir seni ham yo'qlagudek bir zamon yaxshi"⁴ kabi misralaridan ham bilsak bo'ladi. Hatto adiblar va sho-irlar norozilik motivlari mavjud bo'lgan she'rlarida yoki asarlarida ham kelajakka ishonch, farovon hayot haqidagi orzu-umidlari aks ettirilgan.

¹ Колобаева Л. Концепция личности в русской литературе рубежа XIX–XX вв. Москва, МГУ, 1990, с. 35.

² Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, "Akademnashr", 2018, 418-bet.

³ Quronov D. Muloaa va idroq mashqlari. Toshkent, "Akademnashr", 2013, 191-bet.

⁴ Mamayusupova Sh. Journal of new century innovations, № 1, 2023, p. 6.

Ma'rifatparvarlik davri adabiyoti vakillari Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boy ila xizmatchi", "Ishchilar hayotidan", Avaz O'taming "Xalq", "Fidoi xalqim", Muqimiyning "Tanobchilar", "To'y", Zavqiyning "Voqeayi qozi saylov", "Qahatchilik" kabi asarlarida ijtimoiy adolatsizliklar fosh etiladi, insonning qadr-qimmatini ulug'lanib, zulmkor rahbarlar satira tarzida tanqid ostiga olinadi.

Bunday asarlarni yaratilishi zahmatkash xalqni porloq kelajakka umid bog'lashlariga o'z hissalarini qo'shdilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan jadid adabiyoti o'zbek adabiyotida tub burilish yasad. Ushbu davrda adabiyotga "millat" va "vatan" tushunchalari kirib keldi.

"O'zbek jadid adabiyoti nafaqat mumtoz adabiy an'analami inkor qilish, balki insonning yangi badiiy konsepsiyasini taqdim etish bilan qaror topdi. Jadidlar yaratgan inson konsepsiyasining markazida esa milliy istiqbol va ma'rifatparvarlik turadi"¹ deya adabiyotshunos olimimiz fikr bildirgan bo'lsa Sa'diy A. ushbu harakatni Yevropadagi ma'rifatchilik adabiyotiga qiyoslaydi: "Jadid burjuaning ideyasi va tub "ideali" Ovropo'pa sanoat burjuaziyasi planida eskilik-feodalizm va nodonlik bilan kurash ham burjuaziya-kapitalizm yo'li bilan tarqiy qilish, madaniyatda kapitalizm asosida Ovropo'pa burjuaziyasi darajasiga borib yetishdan iborat edi"².

Tadqiqot natijalariga ko'ra jadidchilik adabiyoti vakillari jamiyatdagi turli qatlamlardan kelib chiqqan insonlarning taqdirini, ularning orzu-umidlari, kurashlari va fojialarini aks ettirib, xalqni ma'rifatga, milliy o'zlikni anglashga va yangi hayotga chorlaydi.

Jadidchilik adabiyotining asosiy maqsadi xalqni bilimli qilishga qaratilgan edi. Ularning qoidasiga ko'ra, ma'rifatli insonlar o'z haq-huquqlarini biladi, jamiyatga foyda keltiradi va o'z taqdirini mustaqil tarzda belgilay oladi. Jadid adiblar jamiyatdagi ijtimoiy adolatni ham asosiy masala sifatida keltirib o'tishgan. Ular o'zlarining asarlarida amaldorlarning zulmini va xalqning og'ir ahvolini bayon qilishgan. Bu asarlar orqali insonlarning huquqlari poymol qilinmasligi, har bir inson munosib va yaxshi hayot tarzini kechirishga haqli ekanligi to'g'risidagi g'oyani targ'ib qilishgan.

Milliy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlarini saqlab qolish jadid adabiyotini yana bir muhim masalalaridan edi, chunki milliy o'zligini anglagan inson o'z xalqining manfaatlarini himoya qiladi va uning ravnaqi uchun kurashadi.

Jadid adabiyotida ayollar taqdiri alohida o'rin tutgan. Jadidlar ayollarni o'qitish, jamiyatda ularni o'z o'rnini topishga ko'maklashish, ularni jamiyatda faol ishtirok etishini ta'minlash, erkinlik va tenglik huquqlarini berish tarafdori bo'lishgan. Ular o'z asarlarida ayollarning og'ir turmush tarzini, huquqlarini poymol qilinishini tasvirlashgan va jamiyatni bu muammolarga e'tibor berishga chaqirishgan.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ma'rifatchilik davri romanlarida inson obrazi, asosan, zulmga qarshi kurashuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Jadid adabiyotida esa inson ma'rifatli, ongli, o'z haq-huquqini biladigan va milliy o'zlikni anglagan shaxs sifatida tasvirlanadi. Sovet davri romanlarida ruhiy kechinmalar, ichki nizolar, vijdon azobi va axloqiy tanlovlar chuqur yoritiladi. Mustaqillik davri romanchiligida inson global o'zgarishlar fonida o'zligini izlovchi, ma'naviy qadriyatlarga tayanib yashovchi shaxs sifatida talqin etiladi.

Umumiy tahlil insonning qadr-qimmatini barcha davrlarda adabiyotning asosiy mezonini bo'lib qolganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XX asr adabiyoti bosh mavzu sifatida insonlarning murakkab taqdiri va qadr-qimmatini aks ettirishni o'z oldiga maqsad qilgani bilan o'zbek adabiyotida muhim o'rin egalladi. Ushbu davrda yozilgan barcha asarlarda inson omili asosiy omil sifatida ko'rildi va bosh markazida uning ehtiyojlari o'rin oldi.

XX asr o'zbek romanchiligi inson taqdiri har xil vaziyatda sinab ko'rdi; qiyin va ziddiyatli vaziyatlar markazida ham inson asosiy o'rnini egalladi. Insonning qadr-qimmatini faqat tashqi omillar ya'ni boylilik, mansab bo'libgina qolmay, balki ma'naviy jasorat, vijdon pokligi va o'zlikni anglash kabi masalalar asosiy hisoblandi. Bunday asarlar xalqqa, kitobxonaga har doim inson o'z qadr-qimmatini, haq-huquqlari uchun kurashishi lozimligini uqtirdi va hayot haqiqatlarini anglab yetishi uchun oyna vazifasini o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Toshkent, "Ilm-ziyo-zakovat" nashriyoti, 2019, 146-bet.

¹ Quronov S. Romanda inson. Andijon, Ilmiy bitiklar, 2024, 18-bet.

² Sa'diy A. O'zbek burjua adabiyoti. XIX-XX asrlar. Toshkent, O'zdamnashriyot, 1934, 30-bet.

- (2). Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent, G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017, 5-bet.
- (3). Cho'lpon. Kecha va kunduz. Toshkent, O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2018.
- (4). Said Ahmad. Ufq. Toshkent, "Sano-standart" nashriyoti, 2019, 323-bet.
- (5). Pirmqul Qodirov. Yukduzli tunlar. Toshkent, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2010, 56-bet.
- (6). O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2018.
- (7). Bazarov Z. Badiiy tarjimada leksik-stilistik bo'yoqdorlikni saqlash muammolari (A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimalari misolida). PhD avtoref., Samarqand, 2020, 56-bet.
- (8). Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, "Akademnashr", 2010, 210-bet.
- (9). Fuzaylova N.A. Analysis of the expression and specific characteristics of neologisms in translation. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. 2024, t. 21, № 2, p. 175–180. URL: <https://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5109>
- (10). Sobirova G. A. Isajon Sultonning "Avliyo" hikoyasi inglizcha tarjimasining lingvistik va adabiy tahlili. "O'zbek istonda xorijiy tillar", 2025, II-jild, № 5, 172–183-betlar. <https://doi.org/10.36078/1762332566>
- (11). Fuzaylova N.A. O'tkir Hoshimov asarlarida ichki kechinmalarning ifodalaniish usullari ("Ikki eshik orasi" asari misolida). "Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti", 2025, № 6 (6 июнь), 23–28-betlar.

Jumaniyazova Ro'zagul Saparbayevna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasl 2-kurs tayanch doktoranti; jumaniyazovarozagul3@gmail.com)
QO'ZI DAVLATNING "TUNGI YOG'DU" ROMANIDAGI FERUZ OBRAZINING G'OYAVIY-BADHIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo'zi Davlat qalamiga mansub "Tungi yog'du" romanidagi Feruz obrazining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Feruzning madaniyat, adabiyot san'at homiysi, xalqparvar davlat arbobi sifatidagi faoliyati badiiy gawdalantirilgan tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: tarixiy obraz, roman, psixologik tahlil, badiiy timsol, yozuvchi mahorati, "Tungi yog'du", zamonaviy adabiyot.

Жуманиязова Розагуль Сапарбаевна (Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, Кафедра узбекского языка и литературы, базовый докторант 2-го курса; jumaniyazovarozagul3@gmail.com)

ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗА ФЕРУЗА В РОМАНЕ КОЗИ ДАВЛАТА «ТУНГИ ЁГДУ»

Аннотация. В данной статье рассматриваются идейно-художественные особенности образа Феруза в романе Кози Давлата «Тунги ёгду». Анализируется художественное воплощение деятельности Феруза как покровителя культуры, литературы и искусства, народолюбивого государственного деятеля.

Ключевые слова: исторический образ, роман, психологический анализ, художественный образ, мастерство писателя, «Тунги ёгду», современная литература.

Jumaniyazova Rozagul Saparbayevna (2nd-year Doctoral student, Department of Uzbek Language and Literature of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni)

IDEOLOGICAL-ARTISTIC CHARACTERISTICS OF THE IMAGE OF FERUZ IN THE NOVEL "TUNGI YOGDU" BY QOZI DAVLAT

Annotation. This article examines the ideological-artistic characteristics of the image of Feruz in the novel "Tungi Yogdu" by Qozi Davlat. The artistic embodiment of Feruz's activities as a patron of culture, literature and art, and a statesman who loves the people is analyzed.

Keywords: historical image, novel, psychological analysis, artistic image, writer's skill, "Tungi yogdu", modern literature.

Kirish (Introduction). Mamlakatimizda istiqloq davri boshlanishi bilan tarixiy qahramonlarimizning shaxsi, faoliyatini real tarzda yoritish, ularning ma'naviy boyliklarini bugungi avlodga yetkazish borasida qizg'in ishlar boshlanib ketdi. 1991-yildan bugungi kungacha bo'lgan davrda juda ko'plab badiiy, ilmiy-ijodiy izlanishlar qilinib, ajdodlarimiz ma'naviy-madaniy merosi yangicha qarashlar asosida o'rganilib kelmoqda. O'zbek adabiyotida tarixiy shaxslar obrazini haqqoniy va realistik tarzda aks ettirish, tarixiy haqiqatni buzmasdan, badiiy jihatdan mukammal asarlar yaratish hamda o'tmishga poetik nigoh bilan yondashish bugungi kunda bosqichma-bosqich taraqqiy etayotgan muhim adabiy jarayonlardan biridir. Ayniqsa, tarixiy qahramonlar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarlarni tahlil qilish, ularning yangi qirralarini